



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

Ўзбекистон худудида

тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish funktsiyalari va tamoyillari	156
Xilola Nematovna Ochilova Oliy ta’lim tizimida pedagog-xodimlarni boshqarishning ahamiyati	162
Niyozxo’ja Bahroil o’g’li Yahyoxonov Samsung kompaniyasining marketing faoliyati tahlili	168
Xilola Nematovna Ochilova, Asilbek Po’lat o’g’li Ne’matov Oliy ta’lim muassasalarida pedagog-xodimlarni boshqarishning samaradorligini baholash yo’llari	173
ИНВЕСТИЦИЯ	
Musurmon Axmadovich A’zamov, Ra’no Sherali qizi Xoliqulova, Muzaffar Janobiddinovich Suyunov Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarning o’rni va ahamiyati	177
Ozodbek Shuhrat o’g’li Jumaqulov Investitsion jozibadorlikni oshirishni iqtisodiy rivojlanishga ta’siri	181
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Nuriddin Elamonovich Ernazarov Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig’ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish	188
Bobir Xo’jaqul o’g’li Qilichov Sug’urta bozorlari va global turizmning o’zaro bog’liqligi	191
Зариф Юсупович Аминов Хизмат кўрсатувчи корхоналар иқтисодий хавфсизлиги ҳолатини баҳолашда қўлланиладиган кўрсаткичлар тизими ва уларни аниқлаш йўллари	194
То’лиқин Ismatulla o’g’li Yahyoyev Pul oqimlari harakatini moliyaviy hisob xalqaro standartlariga ko’ra aks ettirilishi	198
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Бекзод Сайдазим ўғли Бурхонов Инсон ресурслари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ва унга таъсир этувчи омиллар	202
Шахриёр Шодиёрович Тураев Адвокатлик тузилмалари адвокатга иш ҳақи тўловлари ва унинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш	206
Baxtiyor Xushvaktovich Azizkulov, Musurmon Axmadovich A’zamov, Dilafruz Asqarjon qizi Uroqova Klasterlar faoliyatini ekonometrik prognozlash	210
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Feruz Kubaymurodovna Ismoilova Ta’lim xizmatlari bozorida malakali kadrlarga bo’lgan ehtiyojni shakllantirish asoslari	215
Akram Abduraxmonovich Azizqulov, Is’haq Abduraxmonov Xizmat ko’rsatish odobi Yusuf Xos Xojib talqinida	219
Khasan Khankeldiyev, Shakhrux Bobojanov A study on preference for either online education courses or traditional ones at turin polytechnic university in Tashkent	223
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ҳар биримиз 8,2 миллиард кишининг биримиз	227

–tadqiqot va ochiq axloqiy muloqotni asosiy harakat vositasi bo‘lib xizmat qilishi lozim va boshqa shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dedajanov B.N., Ergasheva F.I. “PR-menejment”. Darslik. –Namangan.: «Usmon Nosir media» nashriyoti, 2023. – 665 b.
2. Ergasheva F.I. Zamonaviy sharoitda PR (jamoatchilik bilan aloqalar)ning mazmuni va ahamiyati.YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. 2024-yil, sentyabr. № 9-son.. 356-360-b.
3. Ergasheva Fotimakhon Ibragimovna . Principles and levels of management of PR activities in crisis situations. THE AMERICAN JOURNAL OF MANAGEMENT AND ECONOMICS INNOVATIONS (ISSN- 2693-0811) VOLUME 06 ISSUE12 39 <https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajmei>. PUBLISHED DATE: - 11-12-2024 .DOI: - <https://doi.org/10.37547/tajmei/Volume06Issue12-04> PAGE NO.: - 39-47.
4. Блажнов А.А. Паблик рилейшнз - Public Relations: Приглашение в мир цивилизованных рыночных и общественных отношений: уч. пособие. -М.: ИМА-пресс, 1994. – 157 с.
5. Блэк Сэм. Паблик рилейшнз. Что это такое? / Сэм Блэк. - М.: Модино пресс, 2014.–240 с.
6. Даг Ньюсом, Джуди Ван, Слайк Терк. Все о PR. Теория и практика паблик рилейшнз / Даг Ньюсом, Джуди Ван, Слайк Терк, Дин Крукеберг. - М.: СИНТЕГ, 2015. – 628 с.

Ф.Эргашева	F.Ergasheva
Функции и принципы управления связями с общественностью	Functions and principles of public relations management
<p>Аннотация. В данной статье рассматриваются различные подходы к связям с общественностью и управлению ими, их содержание и группировка. Описаны основные функции и принципы управления связями с общественностью, а также обозначены некоторые проблемы, препятствующие их эффективному использованию. В рамках области был сформирован общий вывод и разработаны соответствующие рекомендации для эффективной деятельности.</p> <p>Ключевые слова: связи с общественностью, технологии связей с общественностью, внешняя общественность, внутренняя общественность, общественное мнение, функция управления, специалисты по связям с общественностью, принципы.</p>	<p>Abstract. This article examines various approaches to public relations and their management, their content and grouping. The main functions and principles of public relations management are described, and some problems that hinder their effective use are identified. Within the framework of the area, a general conclusion was formed and appropriate recommendations for effective activity were developed.</p> <p>Keywords: public relations, public relations technologies, external public, internal public, public opinion, management function, public relations specialists, principles</p>

Xilola Nematovna Ochilova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Menejment” kafedrasida dosenti v.b., PhD

OLIV TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOG-XODIMLARNI BOSHQARISHNING AHAMIYATI

<p>Annotasiya. Maqolada Oliy ta'lim tizimida pedagog-xodimlarni hozirgi kunda boshqarishga ta'sir qiluvchi omillar, Samarqand viloyatidagi oliy ta'lim muassasalarining yillar davomida o'sish tendensiyalari, Samarqand viloyati OTMda professor-o'qituvchilar sonining dinamikasi keltirilgan hamda OTM lari boshqaruviga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilingan.</p> <p>Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, menejment, boshqaruv, professor-o'qituvchilar, talabalar, boshqaruv xususiyatlari, boshqaruv samaradorligi .</p>
--

Kirish. Oliy ta'lim tizimida pedagog-xodimlarni boshqarishning hozirgi holatiga baho berish uchun kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iboratligiga ham alohida ahamiyat berishni taqozo qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti:

“Bizga miqdor emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa xorij tajribasini yaxshilab o‘rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratsa, o‘sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish eng muhim vazifamizdir”¹, deb ta‘kidladi. Shuning uchun oliy ta‘lim tizimining eng asosiy vazifasi malakali, serqirra, o‘z sohasining yetuk mutaxassisi, bozorbop kadrlar tayyorlashdan iborat.

Sifatli kadrlarni yetishtirish o‘zidan o‘zi amalga oshib qolmaydi. Shaxsni davlat va jamiyat nuqtayi nazaridan, unga kerak kadr sifatida takomillashtirish uchun uzluksiz ta‘limni yo‘lga qo‘yishni taqozo qilar ekan. Buning uchun birinchi navbatda, malakali pedagoglarni shakllantirishni va ularning mehnatini ta‘limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratishni taqozo qiladi. Chunki malakali kadrlar tayyorlash uchun oliy ta‘limda, albatta, malakali pedagoglar shakllangan bo‘lishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida malakali pedagoglarni tayyorlashni, ularning faoliyatini yaxshi yo‘lga qo‘yishni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oliy ta‘lim tizimi boshqarishni takomillashtirishga oid masalalar bilan mamlakatimiz olimlari tomonidan S.S.G‘ulomov, A.T.Shermuhamedovlar², M.A.Ikromov³, M.Q.Pardayev⁴, Q.X.Abduraxmonov, Sh.R.Xolmo‘minov, N.Q.Zokirova⁵ kabilar shug‘ullanib kelmoqdalar. Ushbu mualliflar tomonidan bir qancha adabiyotlar va ilmiy maqolalar nashr qilingan. Unda asosan ta‘lim tizimini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyot, raqamli ta‘limni joriy qilish, personalni boshqarish kabi masalalar yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada oliy ta‘lim tizimida pedagog-xodimlarni boshqarish bo‘yicha makon va zamon, mantiqiy, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ushbu masalani Samarqand viloyati misolida qarab chiqamiz. Bugungi kunda Samarqand viloyatida 20 tadan ortiq davlat va nodavlat universitet va institutlar va filiallari faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Samarqand Davlat arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand tibbiyot universiteti, Samarqand davlat veterinariya, chorvachilik va biotexnologiya universiteti, Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali, Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti Samarqand filiali, Samarqand Davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali, Samarqand Davlat universiteti Urgut filiali, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Samarqand filiali, Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand Davlat chet tillar instituti, Samarqand davlat universiteti agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti, Samarqand davlat universiteti muxandislik fizikasi instituti, Samarqand oliy harbiy avtomobil qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti, Samarqand xalqaro texnologiya universiteti, Zarmed universitetlari mavjud. Ammo 2022-2023 o‘quv yili bo‘yicha statistika ma‘lumotlariga ko‘ra quyidagicha keltirilgan (1-jadval).

Ushbu jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, shu 5 yil davomida viloyatda oliy o‘quv yurtlari soni qariyb 2 barobarga (187,5 %) oshgan. Mos ravishda professor-o‘qituvchilar soni 121,2 % ga (4029*100/3323), talabalar soni 242,6 % ga (84739*100/34930) oshgan. Ko‘rinib turibdiki, birgina Samarqand viloyati uchun ham pedagoglar soni ancha kerak ekan. Agar talabalarga mos ravishda qaraydigan bo‘lsak, ularning soni 4029 nafar emas, balki 8062 kishi (3323*242,6/100) bo‘lishi kerak edi. Yana qo‘shimcha 4033 kishini (8062 - 4029) talab qiladi.

¹ Uza.uz

² . Гуломов С.С., Шермухаммедов А.Т. Развитие цифрового маркетинга в Узбекистане. // “Ўзбекистонда ҳаракатлар стратегияси самарадорлигини оширишда маркетинг концепцияларидан фойдаланиш муаммолари” мавзусида ХИАК материаллари тўплами. – Т.: “Иқтисод-молия” нашриёти. 2019. – 24-29 бетлар.

³ Икромов М.А., Шермухаммедов А.Т. Цифровой товар: стратегии производителей и продюсеров. // “Ўзбекистонда ҳаракатлар стратегияси самарадорлигини оширишда маркетинг концепцияларидан фойдаланиш муаммолари” мавзусида ХИАК материаллари тўплами. – Т.: “Иқтисод-молия” нашриёти. 2019. – 100-103 бетлар.,

⁴ Пардаев М.Қ. Рақамли иқтисодиётнинг таърифи, мақсади, ижобий ва салбий томонлари. // “Сервис” илмий-амалий журнали. 2019 1-сон. – 5 бет., Пардаева ва бошқалар. Таълим хизматлари ва уларнинг самарадорлигини ошириш масалалари. Монография. – Т.: “инновацион ривожланиш нашриёт-мағбаа уйи”, 2020. – 260 бет.

⁵ Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р., Зокирова Н.Қ. Персонални бошқариш. Дарслик. Т., “Ўқитувчи” НМИУ, 2008. – 656-бет.

1-jadval

Samarqand viloyatida oliy ta’lim muassasalarining, professor o’qituvchilar, talabalar va bitiruvchilar to’g’risida 2018-2023 yillardagi o’zgarish dinamikasi

Yillar	OTMlar soni, birlikda	Professor-o’qituvchilar soni, kishi	Talabalar soni, kishi	OTMni bitiruvchilar soni, kishi
2018/2019	8	3323	34930	6869
2019/2020	11	3241	41093	6842
2020/2021	12	3341	54827	7165
2021/2022	14	3849	70772	8528
2022/2023	15	4029	84739	8962


Yuqoridagi jadvaldan ko’rinib turibdiki, oliy ta’lim muassasalari soni oxirgi yillarda o’sib bormoqda. Bularni quyidagi jadvalda ham ko’rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval

Samarqand viloyatidagi oliy ta’lim muassasalarining yillar davomida o’sish tendensiyasi

Yillar	OTMlar soni	2018/2019 o’quv yiliga nisbatan, %	O’tgan yilga nisbatan o’sishi, %
2018/2019	8	100,0	100,0
2019/2020	11	137,5	137,5
2020/2021	12	150,0	109,1
2021/2022	14	175,0	116,7
2022/2023	15	187,5	107,1

Bu statistik ma’lumotlardan shuni ko’rishimiz mumkinki, 2018-2019 o’quv yiliga qaraganda 2022-2023 o’quv yilida oliy ta’lim muassasalari soni 187,5 foizga, ya’ni 7 taga ko’paygan. Bularning grafisini quyidagi chizmadan ham ko’rinishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Samarqand viloyatidagi oliy ta’lim muassasalarining yillar davomida o’sish tendensiyasi


Davlatimiz rahbarining ta’limga katta e’tibor berayotganligi sababli Samarqand viloyatida ham oliy ta’lim muassasalari yildan-yilga o’sib bormoqda. Shuning evaziga professor-o’qituvchilar soni ham keyingi yillarda o’sib borishi kuzatilmoqda. Buning yana asosiy sabablaridan biri mamlakatimizda o’qituvchilarga berilayotgan katta e’tibor hamdir (3-jadval).

Bu jadvalimizdan ko’rinib turibdiki, professor-o’qituvchilar soni ham yildan-yilga ko’payib bormoqda. 2018/2019 o’quv yiliga nisbatan oladigan bo’lsak, 2019/2020 o’quv yilida 97,5 foizga kamayib, 2020/2021 o’quv yilida esa 100,5 foizga, 2021/2022 o’quv yilida esa 115,8 foizga, 2022/2023 o’quv yilida esa 121,2 foizga ko’payib borgan. Buni quyidagi rasmda ham ko’rishimiz mumkin (2-rasm).

3-jadval

Samarqand viloyati OTMda professor-o‘qituvchilar sonining dinamikasi

Yillar	Professor-o‘qituvchilar soni, kishi	2018/2019 o‘quv yiliga nisbatan, %	O‘tgan yilga nisbatan o‘sishi, %
2018/2019	3323	100,0	100,0
2019/2020	3241	97,5	97,5
2020/2021	3341	100,5	103,1
2021/2022	3849	115,8	115,2
2022/2023	4029	121,2	104,7



2-rasm. Samarqand viloyati OTMda professor-o‘qituvchilar sonining dinamikasi

Mamlakatimizda ta’limga katta e’tibor berilishidan kelib chiqib oliy ta’limda o‘qishga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Bunga aholi sonining o‘sishi va OTMda o‘qishga bo‘lgan talabning ortishi talabalar sonining oshishiga sabab bo‘lmoqda (4-jadval).

4-jadval

Samarqand viloyati OTMda talabalar sonining o‘shish tendensiyasi

Yillar	Talabalar soni	2018/2019 o‘quv yiliga nisbatan, %	O‘tgan yilga nisbatan o‘sishi, %
2018/2019	34930	100,0	100,0
2019/2020	41093	117,6	117,6
2020/2021	54827	157,0	133,4
2021/2022	70772	202,6	129,1
2022/2023	84739	242,6	119,7

Bu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, talabalar soni ham yildan-yilga ko‘payib bormoqda. 2018/2019 o‘quv yiliga nisbatan oladigan bo‘lsak, 2019/2020 o‘quv yilida 117,6 foizga, 2020/2021 o‘quv yilida esa 157,0 foizga, 2021/2022 o‘quv yilida esa 202,6 foizga, 2022/2023 o‘quv yilida esa 242,6 foizga ortib borgan. Yillar davomida o‘sishi ham ko‘payib bormoqda.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda viloyatimizda tahsil olib bitirayotgan kadrlarimizning ham soni yildan-yilga ortib bormoqda. Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari sonining ortishi iqtisodiyotda band bo‘lganlar sonining oshishiga olib keladi. Buni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin (5-jadval).

Bu jadvalimizdan ko‘rinib turibdiki, viloyatimizda oliy ta’lim muassasalarini bitirayotgan kadrlarimiz soni ham yildan-yilga ko‘payib bormoqda. 2018/2019 o‘quv yiliga nisbatan oladigan bo‘lsak, 2019/2020 o‘quv yilida 99,6 foizga kamayib, 2020/2021 o‘quv yilida esa 104,3 foizga, 2021/2022 o‘quv yilida esa 124,1 foizga, 2022/2023 o‘quv yilida esa 130,5 foizga ortib borgan. Yillar davomida o‘sishi ham ko‘payib bormoqda.

Samarqand viloyatida OTM bitiruvchilar sonining dinamikasi

Yillar	OTMni bitiruvchilar	2018/2019 o‘quv yiliga nisbatan %	O‘tgan yilga nisbatan o‘sishi, %
2018/2019	6869	100,0	100,0
2019/2020	6842	99,6	99,6
2020/2021	7165	104,3	104,7
2021/2022	8528	124,1	119,0
2022/2023	8962	130,5	105,1

Shulardan iqtisodiy yo‘nalishda kadrlar tayyorlab beradigan institutlardan biri bu Samarqand iqtisodiyot va servis instituti hisoblanadi. Bu haqda qisqacha ma’lumot. Mazkur institutning asosi bo‘lgan Samarqand kooperativ instituti 1931-yil tashkil topgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 26 mart 144-sonli qarori bilan Samarqand iqtisodiyot va servis institutiga aylantirildi. Bu institutning asosiy maqsadi xizmat ko‘rsatish sohasiga malakali va yetuk kadrlar tayyorlashdir.

Shuni alohida qayd etish joizki, ikkinchi mutaxassislik, sirtqi, xorijiy oliy o‘quv yurtlari bilan qo‘shma dasturlar oxirgi yillarda paydo bo‘ldi. Bu ham yoshlarimizga katta imkoniyatlar eshiklarini ochib bermoqdalar. Bu jarayonning bitta nozik tarafi bor. Ushbu talabalarni o‘qitadigan o‘qituvchilarni ham yetishtirish va tayyorlash lozim bo‘ladi. Bu, albatta, bir-ikki yillik ish emas. Bu ma’lum vaqtni talab qiladi. Shunga mos ravishda magistrlar sonini yanada ko‘paymoqda, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilarni ham oshirish ko‘zda tutilgan. Bularning hammasi jamiyatimizda ta’limning rivojlanishi uchun tegishli tadbirlarning amaldagi ifodasi hisoblanadi.

Biz yuqorida OTM lari boshqaruviga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qildik. Bulardan asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu OTM larida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilardir.

Mamlakatimizda ta’limga katta e’tibor berayotganligi sababli Samarqand iqtisodiyot va servis institutida ham yildan-yilga talabalar soni ham, professor-o‘qituvchilar soni ham ko‘payib bormoqda. Bu natijalarga erishishda ushbu holatni to‘g‘ri boshqarib, tegishli samaradorlik va sifatga erishib kelinmoqda. Bu nafaqat institutning, balki jamiyatimizning ham maqsadi va manfaatiga mos keladi. Odatda funksional vazifasidan kelib chiqqan holda institut faoliyatini rektor boshqaradi. Rektor boshqaruvida topshiriqlarni prorektorlarga, prorektorlar, bo‘lim boshliqlari va dekanlarga, dekanlar kafedra mudirlariga, kafedra mudirlari esa qo‘l ostida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar va xodimlarga topshiriqlarni yetkazadi. Institutning boshqaruv tuzilmasi chiziqli-funksional struktura bo‘lib, boshqaruv bosqichlari o‘rtasidagi aloqalar vertikal, boshqaruv bo‘g‘inlari o‘rtasidagi aloqa gorizontall bo‘ladi.

Professor-o‘qituvchilarning asosiy vazifasi darslarni sifatli bajarish va ilmiy ish bilan shug‘ullanishdan iboratdir. Bunda professor-o‘qituvchilar va xodimlar institutda ishlab chiqilgan funksional vazifalariga amal qiladi. Bunda kafedrada ish yuritish faoliyatini va pedagog-xodimlarni kafedra mudiri boshqarishi kerak. Kafedra mudirining har o‘quv yili boshlanishida o‘zining ish rejasini tuzib oladi. Kafedrada har bir bo‘limlar bilan ishlashga professor-o‘qituvchilarni belgilab taqsimlab olinadi. Kafedra mudiri ham boshqaruvchi, ya’ni menejer shaxs hisoblanadi. Institut miqyosida oladigan bo‘lsak quyi pog‘onadagi menejerlar hisoblanadilar. Menejer avvalo o‘zini boshqarishi, har qanlay holatda ham o‘zini tuta bilishi va odilona ish ko‘rishi kerak. Menejer o‘zi ishlashi kerak emas, avvalo qo‘l ostidagilarni ishlashga o‘rgatishi va ishlata bilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Qo‘l ostidagilarni ham ishlatishda odilonalikka ahamiyat berishi kerak. Kim ko‘p ishlasa va ishlashni bilsa hamma vazifani o‘sha xodimga yuklashi kerak emas, boshqa xodimlarni ham odilona vazifalarni teng taqsimlagan holda ishlata bilishi kerak.

Har bir professor-o‘qituvchi o‘quv yili boshlanishida o‘z shaxsiy ish rejasini tuzib, tasdiqlatib oladi. O‘sha shaxsiy rejada o‘quv ishlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, tashkiliy-uslubiy ishlar va ma’naviy-ma’rifiy ishlarga rejalar tuzadi. Professor-o‘qituvchi to‘liq shtatda ishlagan vaqtida institutda bo‘lishi, boshqa o‘qituvchilar bilan fikr almashishi, har xil tadbirlarda ishtirok

etishi, ilmiy seminarlarda ishtirok etishi, institutning va kafedraning tashkiliy ishlarida ham qatnashishi, professor-o‘qituvchilar darslariga o‘zaro qatnashishi, navbatchilik grafigiga amal qilishi zarur bo‘ladi. Bularning hammasini kafedra mudiri boshqarishi va nazorat qilib borishi zarurdir. O‘z qo‘l ostida ishlayotgan har bir professor-o‘qituvchi va xodimga vaqti-vaqti bilan o‘z faoliyatidan kelib chiqib vazifalar yuklab turishi va uni shaxsan o‘zi nazoratga olishi kerak bo‘ladi. Shundagina kafedra faoliyati namunali kafedralar qatoriga chiqadi.

Boshqarishda, aniqrog‘i professor-o‘qituvchilar qanday faoliyat olib borishini nazoratini institut ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi olib boradi. Bu bo‘lim o‘quv jarayoni bilan birga, ta‘lim sifatini ham tekshirishga mas‘ul. Shu tufayli professor-o‘qituvchilar faoliyatini tekshirib, nazoratga olib va baholab borish ham ushbu bo‘lim zimmasiga yuklatilgan.

Institutda professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholash uchun tegishli mezonlari ishlab chiqilgan. Professor, fan doktorlariga alohida, fan nomzodlari, dotsentlarga alohida, katta o‘qituvchilarga alohida va assistentlarga alohida ko‘rsatkichlar asosida mezonlar ishlab chiqilgan. Har bir professor-o‘qituvchi avvalombor dars sifatiga alohida ahamiyat berishi uchun har bir darsga katta tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Hozirda o‘qituvchilar darslarga har xil me‘yoriy hujjatlar va majmualar bilan kirishi talab etiladi. Bu me‘yoriy hujjatlar dars davomida foydalanish va talabalarga kerakli ma‘lumotlarni yetkazib berish uchun zarur hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida aytib o‘tilganidek, boshqaruvga qanchalik to‘g‘ri yondoshilib, to‘g‘ri qaror qabul qilinsa, hamda ushbu qaror va farmoyishlarning bajarilishini nazorat qilib faoliyatni baholab borilsagina boshqaruv samaradorligiga erishiladi. Oliy ta‘lim tizimida pedagog-xodimlarni samarali boshqarish bugungi kunda ta‘lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Pedagoglarning malakasi, motivatsiyasi, samaradorligi va ijodkorligi to‘g‘ri boshqaruv siyosatlarini orqali yuksak natijalarga erishish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida talabalarning ta‘lim sifatini oshiradi, tizimga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga yo‘l ochadi, oliy ta‘lim muassasasining nufuzini oshiradi, ilmiy-tadqiqot faoliyatini faollashtiradi va ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llashga zamin yaratadi. Shu bois, oliy ta‘lim muassasalarida kadrlar salohiyatini baholash, ularni qo‘llab-quvvatlash, doimiy kasbiy rivojlanishga sharoit yaratish va samarali rahbarlik mexanizmlarini joriy etish strategik ahamiyatga egadir.

Ushbu mavzusi bo‘yicha takliflar berishda, asosiy e‘tiborni pedagog-xodimlarning samarali faoliyatini ta‘minlash, ularning kasbiy rivojlanishi va motivatsiyasini oshirishga qaratish maqsadga muvofiq. Quyida bir nechta aniq va amaliy takliflar berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- samarali kadrlar boshqaruv tizimini joriy etishda har bir pedagog-xodimlarning malakasi, salohiyati va natijadorligi asosida individual rivojlanish rejalarini tuzish;
- pedagog-xodimlarni boshqarishda avtomatlashtirilgan kadrlar boshqaruv platformalarini joriy etish;
- ilmiy va metodik rahbarlikni kuchaytirishda ilmiy darajali mutaxassislarni rahbarlik lavozimlariga jalb qilish;
- ilmiy ishlar va o‘quv ishlari o‘rtasida balansni ta‘minlaydigan ichki reglamentlar ishlab chiqish;
- pedagog-xodimlarni moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;
- samarali faoliyat ko‘rsatgan pedagoglarni moliyaviy rag‘batlantirish;
- “Yilning eng yaxshi o‘qituvchisi”, “Yilning eng yangi pedagogik usullarni qo‘llagan o‘qituvchisi”, “Yilning eng yaxshi murabbiysi”, “Yilning eng mas‘uliyatli o‘qituvchisi”, “Eng samarali o‘qituvchi”, “Eng samarali ustoz”, “Eng serqirra o‘qituvchi” kabi nominatsiyalar asosida e‘tirof etish va mukofotlash;
- tizimda faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash;
- jahon standartlariga mos qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- xorijiy tajriba almashinuv dasturlarini kengaytirish.

- innovatsion pedagogik texnologiyalarga o‘qitish;
- faoliyat samaradorligini baholashda: ta’lim berish, ilmiy ishlar va tarbiyaviy ishlarni integral baholash mezonlarni ishlab chiqish va joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi, «O‘zbekiston —2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637 qonuni. (Yangidan qabul qilingan)// <https://yuz.uz/news/talim-togrisidagi-qonun-imzolandi>.
3. Pardayev M.Q., Ochilova X. N. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim xizmatlari samaradorligini oshirish va boshqarishni takomillashtirish. Monografiya. T., «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2024. 256 bet.
4. Nematovna O. H., Karshibaevich P. M. Issues of Ensuring the Harmony of Education and Education in Improving Educational Services in Higher Education //American Journal of Economics and Business Management. – 2022. – T. 5. – №. 8. – S. 33-37.
5. Ochilova H. N. FACTORS AFFECTING THE IMPROVEMENT OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATION AND WAYS OF THEIR ANALYSIS //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – T. 2. – №. 1.1 Economical sciences.

<p>Х.Очилова</p> <p>Важность управления преподавательским составом в системе высшего образования</p> <p>Аннотация. В статье представлены факторы, влияющие на современное управление преподавательскими кадрами в системе высшего образования, тенденции роста высших учебных заведений Самаркандской области за прошедшие годы, динамика численности профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений Самаркандской области, а также проведен анализ факторов, влияющих на управление высшими учебными заведениями.</p> <p>Ключевые слова: образование, высшее образование, менеджмент, администрация, профессорско-преподавательский состав, студенты, характеристики управления, эффективность управления.</p>	<p>Kh.Ochilova</p> <p>The importance of teaching staff management in the higher education system</p> <p>Abstract. The article presents the factors influencing the current management of teaching staff in the higher education system, the growth trends of higher education institutions in the Samarkand region over the years, the dynamics of the number of professors and teachers in higher education institutions of the Samarkand region, and analyzes the factors influencing the management of higher education institutions.</p> <p>Keywords: education, higher education, management, administration, professors and teachers, students, management characteristics, management effectiveness.</p>
---	---

Niyozxo‘ja Bahroil o‘g‘li Yahyoxonov – SamISI “Marketing” kafedrasi dotsent v.b., PhD

SAMSUNG KOMPANIYASINING MARKETING FAOLIYATI TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samsung kompaniyasining xalqaro marketing faoliyati va raqobat va raqobat muhiti tahlil qilingan. Shuningdek Б kompaniyaning global marketing strategiyalari, brend pozitsiyalashuvi, 4P modeli o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Samsung, xalqaro marketing, global bozor, SWOT-tahlil, marketing strategiyasi, brend pozitsiyalashuvi, 4P, global brend.

Kirish. Texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan bugungi davrda, kompaniyalar global bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun marketing strategiyalarining samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratmoqdalar. Samsung kompaniyasi, texnologik innovatsiyalar sohasidagi yetakchilardan biri sifatida, o‘zining marketing yondashuvlari bilan raqobatbardoshlikni saqlab kelmoqda. 2023-yilda kompaniyaning global savdo hajmi \$260 milliarddan oshgani (Kim, 2024) va 2024-yilda 550 dan ortiq turli texnologik mahsulotlarni ishlab chiqargani, shuningdek, 80 davlatda faoliyat olib borgani (Park, 2024) uning dolzarbligini yanada tasdiqlaydi. Kompaniyaning bozorni chuqur o‘rganishga asoslangan strategiyalari va innovatsion mahsulotlari tufayli u global miqyosda barqaror muvaffaqiyatga erishmoqda. Shuning uchun Samsung kompani-

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.